

**“RAVSHAN” DOSTONIDA PORTRET TASVIRI****TUROBOVA ZAYNAXOL TUYCHI QIZI***TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI O'ZBEK TILI TA'LIM YO'NALISHI**1-BOSQICH TALABASI.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada portret tasviri nimaligi, uning turlari va « Ravshan » dostonidagi portretlar haqida fikrlar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar : *portret, xalq og'zaki ijodi, obraz, personaj, doston, baxshi.*

Badiiy asar, she'r yoki xalq dostonlari haqida so'z borar ekan, unda badiiy qahramon muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, asarning tushunarli shu bilan birgalikda, ta'sirli bo'lishi uchun, avvalombor, obraz mantiqan shakllangan bo'lishi kerak. Bu jihatdan portret janri yozuvchiga yordamchi vazifasini o'taydi.

« Portret »-fransuzcha « portrait » so'zidan olingan bo'lib « tasvirlamoq » degan ma'noni bildiradi. U personajning so'z vositasida tashqi ko'rinishi (yuzining tuzilishi, gavdasi, kiyimi, tana harakati, qiliqlari)ni kitobxon tasavvurida jonlantiradigan, to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biridir. Portret epik asarning kompozitsion unsuri bo'lmish tavsifning bir ko'rinishi hisoblanadi. Portret shartli ravishda 2 ga bo'linadi : statik va dinamik.

Statik portretda personajning tashqi ko'rinishi syujet voqeasi to'xtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirib chiziladi. Odatda, bunday portretlar personaj asar voqeligiga ilk bor kirib kelgan pallada beriladi.

Dinamik portret deganda esa mufassal tasvir emas, balki voqea va dialoglar tasvirida, ya'ni harakat davomida berib boriluvchi personaj tashqi ko'rinishiga xos ayrim detallar ko'zda tutiladi. Bunday portret detallari ko'proq remarkalardan joy oladi va personajning ayni paytdagi ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi.



Portret tasvirini xalq og'zaki ijodi bo'lmish Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan «Ravshan» dostoni misolida ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Ushbu doston Turkiy xalqlarining ko'plab afsonaviy va tarixiy dostonlari kabi o'zining kuchli ma'naviy va axloqiy mazmuni bilan ajralib turadi. «Ravshan» dostoni, asosan, o'zbek xalqining urf-odatlarini, adolat, halollik va boshqa yuksak qadriyatlarini yoritadi. Ko'pgina yozuvchi va adiblar bu dostonni o'zbek xalqining ruhiy va madaniy boyliklarini ifodalovchi yuksak asos sifatida qadrlashadi va unga nisbatan ilig' fiklar bildirishadi. Quyida bir qancha misollar :

Abdujabbor Ahmedov (O'zbek adabiyotshunosi) : «Ravshan» dostoni xalqning tarixiy madaniy xazinasining ajralmas qismidir. Doston o'zbek xalqining milliy va ma'naviy qadriyatlarini saqlashda katta rol o'ynaydi. Ravshan nafaqat adolatli, balki xalqni yuksak ma'naviyatga olib borishga intilgan shaxsdir.

Rauf Parfi (o'zbek adabiyotshunosi) : «Ravshan» dostoni o'zining badiiy ma'naviy salohiyati bilan og'zaki ijodining ajralmas qismidir. Bu doston nafaqat o'zbek xalqining tarixiy-madaniy qadriyatlarini ifodalaydi, balki undagi qahramonlik, adolat va halollik singari g'oyalar zamonaviy jamiyat uchun ham katta ahamiyatga ega. Ravshan nafaqat shaxsiy qahramon, balki xalqning o'ziga xos timsolidir.

G'afur G'ulom (o'zbek shoir va yozuvchisi) : «Ravshan» dostoni xalq og'zaki ijodining eng yaxshi namunalaridan biridir. Ushbu doston xalqning ichki kuchini, uning adolatga bo'lgan intilishlarini va yurtni himoya qilishdagi azm-u shijoatini ajoyib tarzda ifodalaydi. Ravshanning qahramonligi xalqning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Shukur Xolmirzayev (o'zbek adabiyotshunosi) : «Ravshan» dostoni o'zbek xalqi og'zaki ijodining eng muhim xazinalaridan biridir. Dostonni o'qiyotgan odam nafaqat Ravshanning jasorati va adolatliligi, balki xalqning o'ziga xos ruhiyatini, uning qadriyatlarini chuqur tushunadi. Ushbu doston xalqqa chinakam madaniy va axloqiy saboqlar berishda katta ahamiyat kasb etadi.



Zokirjon Madvaliyev(o'zbek yozuvchisi va adabiyotshunosi) : « Ravshan » dostonining asosiy g'oyasi yurtni sevish adolatni tiklash,yomonlikka qarshi turishdir.Bu doston o'zbek xalqining axloqiy qadriyatlarini o'zida aks ettirgan eng yaxshi namunadir.Ushbu dostonni nafaqat adabiyot,balki ijtimoiy hayotimizning ajralmas qismi deb hisoblash mumkin.

Muhammad Solih(O'zbek shoiri) : « Ravshan » dostoni xalqimizning eng yaxshi xususiyatlarini-adolatni ,halollikni,yurtdoshlariga muhabbatni o'zida mujassam etgan asardir.Doston qahramoni Ravshan xalqning umidlarini o'zida jamlaydi va u haqiqiy xalq qahramonining timsoliga aylanadi.

Zaynabiddin Shamsiyev(o'zbek adabiyotshunosi) : « Ravshan » dostoni xalqning yuksak axloqiy me'yorlarini yoritadigan,adolat va halollik kabi qadriyatlarni targ'ib etuvchi dostondir.Dostonning yurtparvarlik vatanni sevish g'oyalari hozirgi kunda ham dolzarbdir.

Dostonda ko'plab qahramonlarni uchratishimiz mumkin.Masalan,Ravshan, Hasanxon, Avazxon, Xon Dalli, Aynoq kal,Jaynoq kal, Misqol pari, Yunus pari,Gulanor va h.klar.

Dostonning asosiy qahramoni Ravshan bo'lib ,dostonda u haqida dinamik portret keltirilgan : « Ravshanbek o'n besh-o'n olti yoshida,zarli qalpoq boshida,yuzi yarqirab,eshikdan salom berib kirib keldi ».Bu portret orqali nafaqat Ravshanning ayni kamolot yoshida ekanligini anglaymiz ,shuningdek, uning tashqi ko'rinishi haqida ham qisman ma'lumotga ega bo'lamiz.Bundan tashqari,yana bir dinamik portret ham bor : « Ravshanbek polvon ularning bu so'zini eshitib,sherday hurpayib,yo'lbarsday chirpanib,qoplonday jimiyib,xezlanib-tezlanib ,qahri kelib,ajdahorday zahri kelib,bahodirliklari uyg'onib,o'tday yonib, olovday qopinib,bir quti gugurtday bo'lib,o't olib ketganday bo'ldi ».Ushbu parchada eng kuchli hayvonlar tasviri zahirida qadimiy ramziy e'tiqodlar ham mavjud,bu qarashlar mifologik tasavvurlarga borib taqaladi.Yo'lbars-dovyuraklik,bahodirlik, jasurlik ramzi.Qadimiy yozma manbaalarda xalq og'zaki ijodida qahramonlar yo'lbars terisini yopinib yurishlari tasviri ham tasvirlangan,bu orqali pahlavonlik bo'rttirilgan.Dostonda,umuman, xalq og'zaki



ijodida qahramonlarning jasurligi botirligi dovyurakligi yo'lbars, qoplon, sherga o'xshatiladi. Misol uchun, dostondagi Avazxon va Hasanxon obrazi: « Avazxon va Hasanxon ham sher haybatli, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar bo'ldi ».

Endi dostondagi ayol obrazlarga to'xtalsak, jumladan, Avazxonning qizi, Go'ro'g'li Ravshanga unashtirmoqchi bo'lgan qiz-Gulanorga. Dostonda Gulanorga statik ta'rif berilgan: « Gulanor ko'p suluv: yaxshi suratli, shirin so'zli, quralay ko'zli, uzun bo'yli, keng ko'krakli, xushxayol, zehni tez, serfahm qiz edi ». Doston davomida Zulxumor, Oqqiz tasvirlari ham puxta ishlangan.

Zulxumor tasviri: "Zulxumorning kamoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi to'lgan oyday ikki qoshi hiloli, yasangan hurday, tishlari durday, ko'zlari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og'izlari oymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon qarchig'ay uchadigan qushday, muhrlangan qog'ozday yalt-yult o'tiribdi". Zulxumorning chiroyi ana shunday yorug' yog'duga o'xshatiladi. Bu go'zallik yanada kuchaytirilib oq yuzidagi xolni ham yondosh tasvirlanadi. Qoshi esa hilol-yangi chiqqan oydek ingichka, to'lin oyday go'zal va tarovatli. Zulxumorning tashqi ko'rinishi hurlarga o'xshaydi. Hurlar ilohiyot olamiga daxldor go'zallikda tengi yo'q parilardir. Zulxumorning yasanib o'tirishi hurlarga qiyoslanadi. Dur-qimmatbaho va oppoq yaltiroq tosh. Ergash Jumanbulbul Zulxumorning tishlarini oq durga o'xshatadi. Zulxumorning tasvirida qo'llanilgan o'xshatishlar uning kanizi Oqqiz portretida ham davom ettirilgan. Oqqiz tasvirini o'qiganda Zulxumorning qanchalik chiroyli tasvirlanganligini his qilishimiz mumkin. "Oqqiz o'zi oq qiz, o'zi to'lgan sog' qiz, o'rta bo'yli chog' qiz, o'ynagani bog' qiz, uyquchi emas sog' qiz, eri yo'q-o'zi toq qiz, ko'p kalandimoq qiz, yaxshi tekil bo'z bolani ko'rsa, esi yo'q ahmoq qiz, qora qiz, bodom qovoq qiz, sinli siyoq qiz, o'zi semiz turishi yog' qiz. Oq yuzin ko'rsang oyday, asov toyday, olg'ir-qarchig'ay qiz; yuvoshligi qo'yday, semiz emasmi, yoysang eriydi sariq moyday. SHunday Oqqiz edi; sayroqli, kachkil bet, pas burun, kulcha betli, o'rta bo'yli, qizil chiroyli, keng manglayli, tor biqinli, qobirg'ali, go'shtdor, to'shdor, olchanglagan, boybicha monand, o'g'ir ko'chgan, qulog'I yupqa, iyagi sergo'sht, qoshi ko'proq



bir-biriga ulash,ko'zi qismaroq qiz edi".Oqqiz portretida oq yuzini go'zallik ramziga,ya'ni nurli oyga o'xshatadi,asov toy tutqich bermaydigan,erkin ot.Oqqizning hurkakligini baxshi shunday qiyoslaydi:Qarchig'ay-chaqqon harakat qiluvchi epchil qushga,harakatini o'xshatadi.Qoy, asoan, yuvosh,beozor jonivor, Oqqizning xarakteri muloyim qo'yga o'xshatilyapti.

Bundan tashqari dostonda kallarning tasvirini ham uchratamiz,ularning tasviri jismoniy quvvati mubolag'alar bilan bo'rttirilib ko'rsatiladi."Aynoq kal shunday edi:"Ot,tuya,arava ko'tara olmas edi,doim bir yoqqa ko'chmoqchi bo'lsa piyoda ketar edi".Ko'rib turganimizday baxshi Aynoq kalning tasviri orqali uning vazni rosa og'irligini,ya'ni kuchliligini mubolag'aning yuqori darajasi bilan ifodalagan.Aynoqning ukasi Jaynoq:"Jaynoq juda masxaraboz edi,har tusli bo'la berar edi,har tusli bo'lganda o'zining jo'ralari ham tanimas edi".Ersak kal shunday edi:"Oqshomlari qo'lga kamonni olsa,qushni ko'zidan urar edi.Juda mergan edi.... Tersak kal sinchi edi:"Yilqining tulporini suyagidan tanir edi,qilichning o'tkirini qinidan bilar edi".

SHuningdek,dotonda Hasan mardning g'azablangan vaqtdagi holatiga (Ravshanni dor tagiga olib borishgandagi ahvoli) ham guvoh bo'lamiz:"Hasan polvon o'zi olovday yonib,dudday tutanib turgan edi.endi mardning g'ayrati kelib,jazavasi qo'zg'alib,o'g'lining bu so'zlarini eshitib,bir na'ra tortib yubordi,shu yerda turganlarning ko'pi eti-petidan tushib,aqli shoshib,esidan adashib,ne botirman deganlar turolmay emaklashib,bari birday chuvillashib qoldi...".SHu bilan birgalikda, baxshi uning oti Girko'kning jangovarligini nihoyatda ustalik bilan tasvirilaydi:"Ostidagi Girko'kni mard Hasan kishkishladi,og'zin ochib Girko'k ot nechovini tishladi,ozu qirgani ozmidi,oti ham urush boshladi,necha odamning kallasini oti uzib tashladi".

Ko'rib turganimizdek,portret janri "Ravshan" dostonida ham xalq og'zaki ijodining asosiy elementlaridan biri bo'lib,u qahramonlarning o'zaro munosabatlari,ularning ichki kechinmalari va qarorlaridagi murakkabliklarni yoritishda xizmat qiladi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES)

- 1.Asqad Muxtorning “CHinor” romanida ayol portretining badiiy-psixologik asoslari/2022/Oripova Gulnoza/Aljonova Maftuna Azimjon qizi.
- 2.Primqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” asarida ayol timsoli/2022/Abdurahimova D/Otabekova O.X/Abduraximova D.
- 3.”Judolik diyori” romanida portret tasviri/2023/Jo’rayeva M/Tojiyeva N.
- 4.Zulfiya Qurolboyeva qizi asarlarida ayollar ruhiy olami tasviri/2022/Lobar Rajabboyeva.
- 5.Cyberleninka.ru/articil